

*Anvarjonova Kamolaxon Zohidjon qizi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*“Tarix” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotation:** Ushbu maqolada pedagoglarda tarbiyaviy faoliyatning ustuvorligi haqida ya’ni o‘qituvchi mahorati birinchi o‘rinda uning dars mashg‘ulotlardagi tayyorgarlik darajasi hisoblanadi. Pedagog faoliyatida mumtazam va mazmunli, maqsadli o‘z bilim va ko‘nikmalarini o‘zining metodlari bilan boyitib borishi kerak.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim, tarbiya, dars, metod, o‘quvchi, faoliyat, o‘qituvchi, usul, pedagog, mahurat, kommunikativ, kasbiy shakllanish.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается приоритетность образовательной деятельности среди педагогов, то есть мастерство учителя в первую очередь основывается на уровне его подготовки на уроках. Учитель должен систематически, осмысленно и целенаправленно обогащать свои знания и умения собственными методами работы.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, урок, метод, ученик, деятельность, учитель, метод, педагог, умение, коммуникативный, профессиональное становление.

**Abstract:** This article discusses the priority of educational activity for teachers, that is, the teacher's skill is primarily the level of his training in lessons. In his work, the teacher should systematically and meaningfully, purposefully enrich his knowledge and skills with his own methods.

**Keywords:** education, upbringing, lesson, method, student, activity, teacher, method, teacher, skill, communicative, professional formation.

### **KIRISH**

Tarbiya — jamiyatning ma’naviy va madaniy asoslarini mustahkamlovchi, inson shaxsini har tomonlama shakllantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy jarayonlardan biri bu jarayonning muvaffaqiyati, avvalo, pedagoglarning kasbiy mahorati, tarbiyaviy qarashlari va amaliy faoliyatiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Pedagog tarbiya orqali yosh avlod qalbiga ezbilik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob-axloq kabi umuminsoniy fazilatlar singdirilib borilyabdi. Shu bois, pedagoglarda tarbiya faoliyatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi nafaqat ta’lim tizimining, balki butun jamiyatning taraqqiyotida ham hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada pedagoglarning tarbiyaviy faoliyati, uning mazmuni, metodik asoslari va zamонавиy yondashuvlari haqida xolisona tahlil qilinadi. Pedagoglarda tarbiya faoliyati deganda avvalo o‘qituvchi yoki tarbiyachilarning o‘quvchi-yoshlarga ijtimoiy, axloqiy, ma’naviy

va madaniy qadriyatlarni singdirish, ularni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishga qaratilgan faoliyat jarayoni tushuniladi.

Pedagoglarning tarbiya faoliyati asosiy yo‘nalishlari:

**Axloqiy tarbiya-** yoshlarga halollik, hurmat, ma’suliyat, odoblilik kabi yaxshi fazilatlarni o‘rgatishdan iborat<sup>1</sup>.

**Jismoniy tarbiya-** sog‘lom turmush-tarzini targ‘ib qilish va jismoniy rivojlanishga e’tibot qaratilgan tarbiya hisoblanadi.

**Vatanparvarlik tarbiyasi-** yurtga mehr-muhabbat, sadoqat va milliy qadriyatlarni hurmat qilishga chorlaydilar.

**Estetik tarbiya-** san’at, adabiyot, musiqa orqali go‘zallikni qadrlashga o‘rgatiladi.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida bilim berish bilan birga, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish muhim masalalarga aylanmoqda. Chunki shaxsning barkamol rivojlanishida tarbiya muhim omil hisoblanadi. Shu bois pedagog faoliyatining ajralmas qismi sifatida tarbiyaviy ishlar ustuvor ahamiyat kasb etib kelmoqda. Pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o‘quvchining ma’naviy olamini shakllantiruvchi, uning axloqiy, estetik, huquqiy qarashlarini mustahkamlovchi yetakchi shaxsdir. Har bir o‘quvchining kasbiy faoliyati tarbiya bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi. U bolaning har tomonlama kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Tarbiya orqali insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar singdirilib kelinadi.

Tarbiyaviy faoliyati ustuvorligi, avvalo, uning uzuksiz va tizimli olib borilishi bilan belgilanadi. Dars jarayonida pedagog o‘quvchilarga faqatgina fan asoslarini emas, balki u bilan birga hayotiy tajriba, madaniyat, axloqiy me’yorlarni ham o‘rgatadi. Shu bois pedagogik mahorat nafaqat bilim berishda, balki tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda ham o‘z aksini topishi kerak.

Tarbiyaviy ishlar ko‘p tomonlama bo‘lib, ular sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, to‘garaklar, tadbirlar, suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Pedagog bu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olgan holda, har bir bola bilan individual yondashuv asosida ishlashi maqsadga muvofiqli. Ayniqsa, oilaviy tarbiya bilan maktab tarbiyasi bir-biriga chambarchas holda olib borilgandagina ijobiy natijalar berishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim jarayonida bilim berish bilan birga, tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish muhim masalalarga aylandi. Chunki shaxsning barkamol rivojlanishida tarbiya muhim omil hisoblanadi. Shuning uchun pedagog faoliyatining ajralmas qismi sifatida tarbiyaviy ishlar ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. Pedagog bilim beruvchi, balki o‘quvchining ma’naviy olamini shakllantiruvchi, uning axloqiy, estetik, huquqiy qarashlarini oshiruvchi yetakchi shaxsdir. Har bir o‘quvchining kasbiy faoliyati tarbiya bilan chambarchas bog‘liq

<sup>1</sup> M.X. Muxamadaliveva, Z.M. Zarifova. A.A. Artikbaveva. “OILA VA IJTIMOIY PEDAGOGIKA” - TOSHKENT , 2022. 25-bet

bo‘lib, u bolaning har tomonlama kamol topishida muhim rol o‘ynaydi. Tarbiya orqali insoniylik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi qadriyatlar ham singdirilib boriladi<sup>2</sup>.

Tarbiyaviy ishlар ko‘p qirrali bo‘lib, ular sinfdan tashqari mashg‘ulotlar, to‘garaklar, tadbirlar, suhbatlar orqali amalga oshiriladi. Pedagog bu jarayonda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini, qiziqishlarini inobatga olgan holda, har bir bola bilan individual yondashuv asosida ishlashi kerak. Ayniqsa, oilaviy tarbiya bilan mакtab tarbiyasi uyg‘un holda olib borilgandagina ijobiy natijalarga erishish mumkin. Pedagogik jarayonda pedagogik faoliyat turlari o‘quv va tarbiyaviy ishlardir. Tarbiyaviy ish - bu insonlarning komil inson bo‘lib yetishishi, har xil muammolarni hal etish uchun o‘quv muhitini tashkil etish uchun, shaxslarni turli xil faoliyat turlarini boshqarishga qaratilgan pedagogik faoliyat<sup>3</sup>. Bola tarbiyasida pedagogikaning o‘rni beqiyos . Tarbiyaviy ishda bolaning ruhiyatidan kelib chiqib ish ko‘rish zarur.<sup>4</sup> Bunda bizga psixologiya fani juda katta yordam beradi. Kattalarga bo‘lgan hurmat, insoniy fazilatlarni, har xil tarbiyaviy jarayonlarni o‘z ichiga oladi . Hozirgi kunda katta yoshli odamlar ham pedagogika fanini qiziqib o‘rganishmoqda. Nega deganda ular o‘zlarini xato kamchiliklarini ko‘rgan holda ya‘ni : xudbin insonga aylanishi, tarbiyani buzuqligi , qo‘pol so‘zlar harakatlar tufayli lekin ular bir vaqtning o‘zida ham psixologiya fani bilan ham shug‘ullansalar shunda ta’siri sezilarli bo‘lar edi. Pedagogika sohasida faoliyat yuritayotgan kadrlarimiz albatta o‘zlarining ta’lim tarbiyasi, fe’l atvori yaxshi bo‘lishi va oliy ma'lumotli pedagog bo‘lishi kerak. Pedagogik faoliyat faqat "ta’lim doirasi"da olib borilmaydi. Aytmoqchimanki, faqat mакtab, kollej, universitet emas. Masalan, hunar o‘rganadigan odamlar qanchadan qancha. O‘rganilayotgan faoliyatni chuqur o‘rganish uchun o‘sha sohani yaxshi biladigan o‘rgata olish qobiliyati, yetqizib berish kabi salohiyatlarga ega bo‘lishlari zarur. Bu ham pedagogik jihatlarga borib taqaladi. Ta’lim sohasini asosiy maqsadi - ta’lim samaradorligiga erishish, qo‘yilgan maqsadga erishish. Tarbiyaviy jarayonda maqsadga erishishga intilinmaydi, chunki tarbiyaviy jarayonda tashkiliy ishlар ma'lum bir vaqt ichida bola psixikasida, tarbiyasida shakllanadigan jarayondir. Bunda faqat aniq maqsadga yo’naltirilgan vazifalarni izchil olib borilmoqda.

### **O‘quv jarayoni bu ikkinchi etap hisoblanadi:**

Bolani bilish qobiliyati o‘tilyotgan darsdan boshlab shakllanadi unda nazariy idrok etish bilan birga tafakkur qilish qobiliyatları ham rivojlanadi. Shu bilan birga o‘quvchilarga vazifalar berib borish uni tekshirish ularda bo‘lgan mas’uliyat hisini uyg‘otadi va olgan bilimlarini yanada mustahkamlaydi.

<sup>2</sup> Azamat MUXTAROV, TDIU professori, falsafa fanlari doktori Sohibjon UMARJONOV, TDIU tayanch doktoranti “Ilm-Ziyo-Zakovat”.2023. 36- bet

<sup>3</sup> R. AMavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova. “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI”- TOSHKENT. 2014. 35 bet

<sup>4</sup> R. AMavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova. “TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI”- TOSHKENT. 2014. 15-20 betlar

O'quv ishida o'qitish tizimiga, o'qitish metodlari kiradi. O'quv jaroyoni bu o'qituvchilar bilan izchil ravishda bog'liq bo'ladi .

**Xulosa:** qilib aytganda, pedagog tarbiyaviy faoliyati bilim berishdan ham balki ko'proq mas'uliyat talab qiladigan sohadir. Zamon talablariga javob beradigan, barkamol, mustaqil fikrlovchi avlodni tarbiyalashda pedagoglarning tarbiyaviy ishga jiddiy e'tibor qaratishini zamon talab etmoqda. Bu esa, kelajak poydevori hisoblanadi. Pedagoglarning asosiy vazifalaridan biri- yosh avlodni bilimli, ma'naviy yetuk va sog'lom qilib tarbiyalashdir. Tarbiya- bu shunchaki faoliyat emas, balki pedagogic jarayoning asosiy tayanchi hisoblanadi. Shuning uchun har bir pedagog o'z kasbiy faoliyatda tarbiyaviy ishlarni ustuvor deb bilish, har bir darsda, har bir muloqotda o'quvchining shaxsiy rivojlanishiga e'tibor qaratish kerak. Barkamol jamiyat bu avvalo yaxshi tarbiyalangan avlod hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. R. AMavlonova, N. X. Rahmonqulova, B. A. Normurodova, K. O. Matnazarova. "TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI"- TOSHKENT. 2014.
2. Azamat MUXTAROV, TDIU professori, falsafa fanlari doktori Sohibjon UMARJONOV, TDIU tayanch doktoranti "Ilm-Ziyo-Zakovat". Toplam . Maqola 2023.
3. M.X. Muxamadaliveva, Z.M. Zarifova. A.A. Artikbaveva. "OILA VA IJTIMOIY PEDAGOGIKA"- TOSHKENT , 2022.
4. Муслимов Н.А., Муталипова М.Ж., Абдуллаева Қ.М. Бўлажак ўқитувчиларнинг коммуникатив компетентлигини шакллантириш технологияси. Методик қўлланма. –Т., 2014.
5. Муслимов Н.А. ва б. Касбий малака ва педагогик маҳорат. Узлуксиз малака ошириш йўналиши бўйича ўкув материаллари. –Т., 2009. 12. Очилов М. Муаллим қалб меъмори. – Т.: Ўқитувчи, 2000.
6. Nishanova S. Sharq Uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. Dokt.diss. -T., 1998
7. <https://new.tdpu.uz/areport/188786>